<i>Xudoynazarova Sayyora Ravshanovna</i>	
Maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar asosida bolalarni axloqiy tarbiyalash texnologiyalari	618
<i>Yo'ldoshboyeva Gulmira Xushnudovna</i>	
Umumta'lim maktab seksiyasi uzunlikka sakrovchilarining jismoniy rivojlanganlik darajasi	621
<i>Zokir Akramov O'tkir o'g'li</i>	
Perseptiv qobiliyat: o'qituvchining o'quvchini tushunish sa'nati	625
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdaliyevich</i>	
Ожидания и потребности родителей как основа продвижения услуг дошкольного образовательного учреждения в Республике Узбекистан	628
<i>Ким Ирина Николаевна, Аббосхонова Зухра Баходир кизи</i>	
Экспериментальная деятельность – метод развития здоровьесберегающей компетентности у детей старшего дошкольного возраста	631
<i>Ким Ирина Николаевна, Алиходжаева Райхон Шавкат кизи</i>	
Подготовка детей-билингвов к школьному обучению: интеграция цифровых и традиционных педагогических методов	634
<i>Ким Ирина Николаевна, Умарова Шоиста Рустамовна</i>	



ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARINING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Kamolova Yulduzxon Ma'murjon qizi

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti PhD Mustaqil izlanuvchisi

ORCID 0000-0002-3749-1689

Annotatsiya: Mazkur maqolada eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishda zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqot maxsus pedagogika va logopediya amaliyotida raqamli trening dasturlarining imkoniyatlarini ochib beradi hamda ularning nutqiy va nutqiy bo'lmagan tovushlarni idrok etish, tahlil qilish va nutqni tanib olish jarayonlariga ta'sirini asoslaydi. Kompyuter texnologiyalariga asoslangan mashg'ulotlarda vizual-akustik teskari aloqa mexanizmlaridan foydalanish eshituv idrokini faollashtirish va nutqiy faoliyatni ongli boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi ko'rsatib beriladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarning individual yondashuvni ta'minlash, ta'lim jarayoniga qiziqishni oshirish hamda logopedik ta'sir samaradorligini kuchaytirishdagi didaktik imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari kompyuter texnologiyalaridan foydalanish eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar, nutqni rivojlantirish, kompyuter texnologiyalari, raqamli trening, nutqiy va nutqiy bo'lmagan tovushlar, fonematik eshituv, vizual-akustik teskari aloqa, maxsus pedagogika, surdopedagogika.

Abstract: This article analyzes the scientific and pedagogical foundations of using modern computer technologies in the speech development of children with hearing impairments. The study reveals the potential of digital training programs in special education and speech therapy practice and substantiates their influence on the processes of perception, analysis, and recognition of speech and non-speech sounds. It is shown that the use of visual-acoustic feedback in computer-based activities contributes to the activation of auditory perception and the development of conscious speech regulation skills. Special attention is paid to the didactic potential of digital technologies in providing individualized learning, enhancing learner motivation, and increasing the effectiveness of speech therapy interventions. The results confirm the pedagogical relevance of integrating computer technologies into special education and speech therapy practice.

Key words: children with hearing impairments, speech development, computer technologies, digital training, speech and non-speech sounds, phonemic hearing, visual-acoustic feedback, special education, speech therapy.

Аннотация: В статье анализируются научно-педагогические основы использования современных компьютерных технологий в развитии речи у детей с нарушениями слуха. Исследование раскрывает возможности применения цифровых тренировочных программ в практике специальной педагогики и логопедии, а также обосновывает их влияние на процессы восприятия, анализа и распознавания речевых и неречевых звуков. Показано, что использование визуально-акустической обратной связи в компьютерных занятиях способствует активизации слухового восприятия и формированию навыков осознанного управления речевой деятельностью. Особое внимание уделяется дидактическому потенциалу цифровых технологий в обеспечении индивидуального подхода, повышении учебной мотивации и эффективности логопедического воздействия. Полученные выводы подтверждают педагогическую целесообразность интеграции компьютерных технологий в систему специального образования и логопедической практики.

Ключевые слова: дети с нарушениями слуха, развитие речи, компьютерные технологии, цифровой тренинг, речевые и неречевые звуки, фонематический слух, визуально-акустическая обратная связь, специальная педагогика, сурдopedagogika.

KIRISH

Bugungi kunda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqiy rivojlanishini ta'minlash maxsus pedagogika va logopediya oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Nutq bolaning bilish faoliyati, ijtimoiy muloqoti va shaxs sifatida shakllanishida yetakchi omil bo'lib, uning rivojlanish darajasi ta'lim jarayonining



samaradorligini belgilaydi ^[1]. Eshituv analizatorining yetarli darajada faol ishlamasligi nutqni eshitib idrok etish, tahlil qilish hamda nutqiy birliklarni ongli ravishda qo'llash jarayonlarini murakkablashtiradi.

Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda nutqning rivojlanishi bolaning faoliyati bilan chambarchas bog'liqligi ta'kidlanadi. L. S. Vygotskiy nutqni ijtimoiy tajribani o'zlashtirishning asosiy vositasi sifatida talqin qilib, uning rivojlanishi maxsus tashkil etilgan pedagogik ta'sir orqali jadallashtirilishini ilmiy asoslab bergan ^[1].

A. N. Leontyev faoliyat nazariyasiga ko'ra, nutq faoliyat jarayonida shakllanib, bolaning amaliy va kommunikativ harakatlari bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi ^[2].

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda an'anaviy logopedik usullar bilan bir qatorda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zarurati tobora ortib bormoqda. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, eshituv idrokini rivojlantirishda vizual tayanchlar va ko'p kanalli ta'lim muhitidan foydalanish nutqni o'zlashtirish jarayonini yengillashtiradi ^[3]. Shu jihatdan kompyuter texnologiyalari bolalarga tovush va nutq birliklarini vizual-akustik asosda idrok etish imkonini beruvchi samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy kompyuter dasturlari eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun individual yondashuvni ta'minlab, mashg'ulotlarni bosqichma-bosqich va tizimli tashkil etish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bolalarning nutqiy faolligini oshirish, fonematik eshituvni rivojlantirish hamda o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi ^[4]. Shu bois eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish masalasi ilmiy-pedagogik jihatdan chuqur o'rganishni talab etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish masalasi maxsus pedagogika va logopediya sohasida alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllangan. Mazkur yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar nutqiy rivojlanishning murakkab mexanizmlarini vizual, akustik va interaktiv vositalar orqali qo'llab-quvvatlash zarurligini ilmiy asoslab beradi.

I. V. Timoshenko o'z tadqiqotlarida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqiy rivojlanishi ularning ta'lim muhiti bilan bevosita bog'liqligini ta'kidlaydi. Muallifning fikriga ko'ra, bunday bolalarda fonetik, grammatik va leksik rivojlanish sog'lom tengdoshlariga nisbatan sekin kechadi va bu jarayon o'qitish sharoitiga kuchli darajada bog'liq bo'ladi ^[5]. Timoshenko integratsiyalashgan ta'lim muhitida o'qiyotgan bolalarda maxsus logopedik va pedagogik qo'llab-quvvatlash yetarli bo'lmagan taqdirda nutq rivojlanishi sustlashishini tajriba asosida ko'rsatadi. Shu bilan birga, maxsus muassasalarda tizimli, bosqichma-bosqich tashkil etilgan pedagogik ta'sir bolalarning og'zaki nutq ko'nikmalarini tezroq shakllantirishga xizmat qilishini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Maxsus ta'lim tizimida O. I. Kukushkina axborot texnologiyalaridan foydalanishni keng qamrovli metodologik asosda yoritgan olimlardan biridir. Uning tadqiqotlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faqat yordamchi vosita sifatida emas, balki tuzatish-rivojlantiruvchi jarayonning markaziy komponenti sifatida ko'rish zarurligi ta'kidlanadi ^[6]. Muallif maxsus ta'limning turli yo'nalishlarida – eshituv, nutq, yozma nutq va kognitiv rivojlanishda – kompyuter texnologiyalarini joriy etish nogironligi bo'lgan bolalarning individual ehtiyojlarini hisobga olish imkonini berishini qayd etadi. Kukushkina tomonidan taklif etilgan ixtisoslashtirilgan kompyuter muhitlari bolalarda mustaqil ishlash, o'z-o'zini nazorat qilish hamda o'quv faoliyatiga barqaror jalb etilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Nutq terapiyasida Y. B. Zelenskayaning ilmiy ishlari kompyuter dasturlaridan foydalanish masalasini amaliy va metodologik jihatdan chuqur yoritib bergani bilan ahamiyatlidir. Muallif rus logopediyasi amaliyotida birinchi marta Speech Viewer dasturining tizimli tahlilini amalga oshirib, nutqning akustik komponentlarini vizual vositalar orqali namoyon etish imkoniyatlarini ilmiy asoslab bergan ^[7]. Zelenskayaning fikriga ko'ra, nutq jarayonining vizualizatsiyasi bolalarda tovush, ritm, intonatsiya va urg'uni ongli idrok etishga yordam beradi hamda logopedik mashg'ulotlarning samaradorligini oshiradi.

Zelenskaya, shuningdek, vizual teskari aloqa texnologiyalari bolalarning mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishini barqaror saqlab turishda muhim omil ekanligini ta'kidlaydi. Uning tadqiqotlarida kompyuter dasturlari yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarning diqqatini nafaqat dastur bilan ishlash jarayonida, balki butun dars davomida saqlab turishga xizmat qilishi ko'rsatib berilgan ^[7]. Bu holat eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan tuzatish ishlarida texnologik yondashuvning afzalligini tasdiqlaydi.

Timoshenko, Kukushkina va Zelenskaya tadqiqotlarini umumlashtirib shuni aytish mumkinki, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish individual yondashuvni ta'minlash, nutqiy va nutqiy bo'lmagan tovushlarni idrok etish jarayonini faollashtirish hamda logopedik ta'sir samaradorligini oshirish uchun ilmiy asoslangan pedagogik yechim hisoblanadi. Ushbu ilmiy qarashlar muallif tomonidan ishlab chiqilgan kompyuter dasturining nazariy-metodologik poydevorini tashkil etadi.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishda kompyuter texnologiyalariga asoslangan pedagogik yondashuvning samaradorligini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi maxsus pedagogika, logopediya va faoliyat nazariyasiga tayangan holda ishlab chiqildi hamda tizimli, faoliyatli va individual yondashuvlarning uyg'unlashuviga asoslandi [8].

Tadqiqot jarayonida nutqni rivojlantirish nutqiy va nutqiy bo'lmagan tovushlarni idrok etishdan boshlab, ularni tahlil qilish va nutqni ongli ravishda tanib olishgacha bo'lgan uzluksiz jarayon sifatida qaraldi. Ushbu yondashuv nutq rivojlanishining psixofiziologik mexanizmlariga mos kelib, bolalarda eshituv idroki va nutqiy faoliyatning birgalikda rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi [9].

Tadqiqotda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish maxsus tashkil etilgan tuzatish-rivojlantiruvchi mashg'ulotlar orqali amalga oshirildi. Mashg'ulotlar mazmuni nutqiy bo'lmagan tovushlar (atrof-muhit tovushlari, ritm va tembr farqlari), nutq tovushlari va so'z birliklarini bosqichma-bosqich o'zlashtirishga yo'naltirildi. Bunday ketma-ketlik nutqni shakllantirishda "oddiydan murakkabga" tamoyilining samarali qo'llanishini ta'minlaydi [10].

Metodologik asos sifatida vizual-akustik teskari aloqa mexanizmlaridan foydalanildi. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, tovush va nutq birliklarini vizual ko'rinishda namoyish etish bolalarda eshituv idrokini faollashtirib, nutqiy xatolarni ongli ravishda anglash va tuzatish imkonini beradi [11]. Shu bois kompyuter dasturida tovushlarning asosiy akustik xususiyatlarini vizual tasvirlashga alohida e'tibor qaratildi.



1-rasm: Nutqni tanish, tahlil qilish va natijani vizual ko'rsatish funksiyasi

Mazkur funksiya bolalarning nutqiy faoliyatini baholash va rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, rasmga tayangan holda nutqni tanish, akustik tahlil qilish hamda natijani vizual shaklda aks ettirish imkonini beradi. Funksiya maxsus pedagogika va logopediya amaliyotida qo'llaniladigan ko'p kanalli (multimodal) yondashuv asosida ishlab chiqilgan.

Mashq jarayonida bola, avvalo, ekranda namoyish etilgan predmet yoki jonivor tasviri bilan tanishadi. Rasm semantik tayanch vazifasini bajarib, bolaning aytilishi lozim bo'lgan so'zni to'g'ri anglashiga yordam beradi. Masalan, rasmda mushuk tasviri ko'rsatilgan bo'lib, bola aynan shu so'zni talaffuz qilishi kutiladi. Ushbu vizual tayanch nutqni faollashtirish va maqsadli talaffuzni yuzaga chiqarishda muhim rol o'ynaydi.

Keyingi bosqichda bola so'zni mustaqil ravishda talaffuz qiladi va uning nutqi mikrofon orqali yozib olinadi. Yozib olingan ovoz signali dasturiy vositalar yordamida raqamlashtiriladi hamda real vaqt rejimida qayta ishlanadi. Nutq signali vaqt va amplituda o'qlari bo'yicha grafik ko'rinishda aks ettirilib, talaffuz jarayonining akustik tuzilishini vizual tarzda kuzatish imkonini beradi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi: pedagogik kuzatish, diagnostik topshiriqlar, tajriba-sinov mashg'ulotlari va sifat tahlili. Ushbu metodlar bolalarning nutqiy rivojlanishidagi o'zgarishlarni tizimli



baholash imkonini berdi hamda kompyuter texnologiyalarining ta'lim jarayoniga ta'sirini aniqlashga xizmat qildi ^[12].


Tadqiqot metodologiyasi bolalarning individual imkoniyatlarini hisobga olishga yo'naltirilgan bo'lib, mashg'ulotlar davomida har bir bolaning eshituv idroki darajasi, nutqiy faolligi hamda o'zlashtirish sur'ati inobatga olindi. Bu holat maxsus pedagogikada individual yondashuvning muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi ^[6].

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish

Tajriba-sinov ishlari eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishda kompyuter texnologiyalariga asoslangan pedagogik yondashuvning amaliy samaradorligini aniqlash maqsadida tashkil etildi. Tajriba jarayoni maxsus pedagogika va logopediya amaliyotida qabul qilingan tizimli hamda bosqichma-bosqich yondashuvlarga tayangan holda olib borildi ^[8].

Tajriba-sinov ishlari davomida nutqni rivojlantirish jarayoni uzluksiz va kompleks faoliyat sifatida tashkil etildi. Mashg'ulotlar nutqiy bo'lmagan tovushlarni idrok etishdan boshlab, nutq tovushlari va so'z birliklarini eshitib tahlil qilish hamda nutqni ongli ravishda tanib olishgacha bo'lgan ketma-ket bosqichlarni qamrab oldi. Bunday yondashuv bolalarda eshituv idroki va nutqiy faoliyatning o'zaro bog'liq holda rivojlanishini ta'minlashga xizmat qildi ^[9].

Tajriba jarayonida kompyuter dasturi asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda olib borildi. Mashg'ulotlar mazmuni nutqiy bo'lmagan tovushlarni (atrof-muhit tovushlari, shovqinlar, ritmik va tembr farqlari) farqlash, keyinchalik esa nutq tovushlarini eshitib ajratish va solishtirishga yo'naltirildi. Ushbu ketma-ketlik nutqni shakllantirishda "oddiydan murakkabga" tamoyilining samarali qo'llanishini ta'minladi ^[10].



2-rasm: So'z talaffuzini vizual va audio asosda baholash funksiyasi

Mazkur funksiyada bola o'rganilayotgan so'zning bir nechta taqdim etilish shakllari bilan ketma-ket tanishtiriladi. Avvalo, so'zning rasm ko'rinishidagi tasviri ekranda namoyish etilib, bolaning vizual idroki faollashtiriladi. Shu bilan birga, mazkur so'zning daktil ishoradagi ifodasi ham ko'rsatiladi, bu esa so'z va uning qo'l ishorasi o'rtasidagi bog'lanishni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Keyingi bosqichda bola dastur tomonidan taqdim etilgan etalon talaffuzni audio shaklda eshitadi. Shundan so'ng u ushbu so'zni mustaqil ravishda talaffuz qiladi. Bola tomonidan aytilgan so'z mikrofon yordamida yozib olinadi va avtomatik tarzda qayta ishlanadi.

Yozib olingan nutqiy signal etalon talaffuz bilan solishtiriladi hamda talaffuzning moslik darajasi tahlil qilinadi. Tahlil natijasiga ko'ra, agar bola so'zni etalonga mos ravishda talaffuz qilgan bo'lsa, dastur ekranida "To'g'ri" natijasi aks ettiriladi. Agar talaffuz etalon variantdan farq qilsa, "Noto'g'ri" degan javob ko'rsatiladi.

Kompyuter texnologiyalarining muhim jihati sifatida vizual-akustik teskari aloqa mexanizmlaridan foydalanildi. Mashg'ulotlar davomida tovush va nutq birliklari grafik hamda vizual belgilar orqali namoyish etilib, bolalarga o'z eshituv idrokini ongli ravishda nazorat qilish imkoniyati yaratildi. Bu holat bolalarning tovushlarni anglash va nutqiy xatolarni mustaqil tuzatish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qildi ^[7].

Tajriba-sinov ishlari jarayonida pedagogik kuzatish va sifat tahlili asosiy baholash vositalari sifatida qo'llanildi. Bolalarning mashg'ulotlar jarayonidagi faolligi, nutqiy reaksiyalari hamda eshituv idrokining rivojlantirish dinamikasi muntazam ravishda qayd etildi. Ushbu yondashuv kompyuter texnologiyalarining nutqni rivojlantirish jarayoniga ta'sirini chuqur tahlil qilish imkonini berdi ^[6].

TAHLIL VA NATIJALAR

Tajriba-sinov ishlari jarayonida kompyuter texnologiyalariga asoslangan mashg'ulotlarning eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqiy rivojlanishiga ta'siri tizimli ravishda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalarini baholashda bolalarning mashg'ulotlar boshidagi va keyingi bosqichlardagi eshituv idroki, nutqiy faolligi hamda nutqiy ko'nikmalaridagi sifat o'zgarishlariga alohida e'tibor qaratildi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, kompyuter dasturi asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarda nutqiy bo'lmagan tovushlarni idrok etish va farqlash ko'nikmalarining barqaror rivojlanishiga olib keldi. Dastlab tovush manbaini aniqlash va akustik farqlarni ajratishda qiyinchiliklar kuzatilgan bo'lsa, mashg'ulotlar davomida ushbu ko'nikmalar izchil shakllanib bordi. Bu holat muallifning avvalgi tadqiqotlarida qayd etilgan natijalar bilan mos keladi ^[13].

Nutq tovushlari bilan ishlash bosqichida bolalarning fonematik eshituv darajasida ijobiy o'zgarishlar aniqlandi. Kompyuter dasturida tovushlarni eshitib tahlil qilish, solishtirish hamda vizual-akustik teskari aloqa asosida baholash mashqlari bolalarning tovushlarni ongli idrok etishiga yordam berdi. Natijada talaffuz aniqligi oshib, nutqiy xatolar sonining kamayishi kuzatildi. Ushbu holat muallif tomonidan olib borilgan oldingi tajriba natijalarida ham tasdiqlangan ^[13].

Shuningdek, tahlil jarayonida bolalarning lug'at boyligi va nutqiy faolligida sezilarli ijobiy dinamika qayd etildi. Mashg'ulotlar davomida eshtirilgan va tahlil qilingan so'zlarning faol nutqqa kirib borishi tezlashdi. Bolalar so'zlarni nafaqat takrorlash, balki ularni kommunikativ vaziyatlarda qo'llashga moyillik bildirib boshladilar. Bu holat kompyuter texnologiyalarining nutqni faollashtiruvchi didaktik imkoniyatlarini yaqqol namoyon etadi ^[14].

Bog'lanishli nutqni rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan tahlillar bolalarning fikrni izchil bayon etish, savollarga mazmunli javob berish hamda qisqa mantiqiy ifodalar tuzish ko'nikmalarida ijobiy siljishlar mavjudligini ko'rsatdi. Kompyuter dasturida takroriy va bosqichma-bosqich mashqlar asosida tashkil etilgan faoliyat bolalarning nutqiy ishonchini oshirib, mustaqil nutqiy faollikni rag'batlantirdi ^[14].

Umuman olganda, tahlil natijalari kompyuter texnologiyalariga asoslangan mashg'ulotlar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda eshituv idroki, nutqiy tahlil va nutqni anglash jarayonlarini faollashtirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Olingan natijalar ishlab chiqilgan dastur amaliyotda qo'llash uchun ilmiy jihatdan asoslangan va pedagogik jihatdan samarali vosita ekanligini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishda kompyuter texnologiyalariga asoslangan pedagogik yondashuvning yuqori samaradorligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan kompyuter dasturi nutqiy va nutqiy bo'lmagan tovushlarni idrok etish, tahlil qilish hamda nutqni tanib olish jarayonlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini bergani aniqlandi. Bu holat nutq rivojlanishining uzluksiz va tizimli jarayon sifatida tashkil etilishi zarurligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kompyuter texnologiyalariga asoslangan mashg'ulotlar bolalarda eshituv idrokining faollashuviga, fonematik eshituvning shakllanishiga hamda nutqiy faollikning oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Vizual-akustik teskari aloqa mexanizmlaridan foydalanish tovush va nutq birliklarini ongli idrok etish hamda o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Natijada bolalarda talaffuz aniqligi, lug'at boyligi va bog'lanishli nutqni shakllantirish jarayonida ijobiy sifat o'zgarishlari kuzatildi.

Tahlil natijalari kompyuter texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari an'anaviy logopedik yondashuvlarni samarali to'ldirishini ko'rsatadi. Raqamli trening dasturlari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar individual yondashuvni ta'minlash, bolalarning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshirish va tuzatish-rivojlantiruvchi ishlarning uzluksizligini saqlashga xizmat qiladi. Bu esa eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan pedagogik aralashuvlarda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy va amaliy ahamiyatini belgilaydi.



Amaliy tavsiyalar:

1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan nutqni rivojlantirish mashg'ulotlariga kompyuter texnologiyalariga asoslangan trening dasturlarini tizimli ravishda joriy etish tavsiya etiladi.
2. Nutqni rivojlantirish jarayonini nutqiy bo'lmagan tovushlarni idrok etishdan boshlash va bosqichma-bosqich nutq tovushlari hamda so'z birliklariga o'tish metodik jihatdan maqsadga muvofiqdir.
3. Mashg'ulotlarda vizual-akustik teskari aloqa mexanizmlaridan foydalanish bolalarning eshituv idroki va nutqiy faolligini oshirishga xizmat qilishi sababli ushbu yondashuvni keng qo'llash tavsiya etiladi.
4. Kompyuter dasturlaridan foydalanishda bolalarning individual eshituv va nutqiy imkoniyatlarini hisobga oluvchi adaptiv yondashuvni ta'minlash zarur.
5. Mazkur dasturdan maxsus ta'lim muassasalari, inklyuziv ta'lim sharoitlari hamda logopedik amaliyotda foydalanish eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim sifati va ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Выготский, Л. С. (2005). Мышление и реч. Москва: Лабиринт.
2. Леонтев, А. Н. (2004). Деятельност. Сознание. Личност. Москва: Смысл.
3. Элконин, Д. Б. (2008). Психология развития. Москва: Академия.
- Boothroyd, A. (1997). Speech perception, hearing impairment, and auditory training. *Journal of Speech and Hearing Research*, 40, 1–12.
4. Тимошенко, И. В. (2004). Развитие речи младших школьников с нарушениями слуха в различных условиях обучения (дисс. ... канд. пед. наук). Санкт-Петербург.
5. Кукушкина, О. И. (2005). Использование информационных технологий в различных областях специального образования (дисс. ... д-ра пед. наук). Москва.
6. Зеленская, Ю. Б. (2001). Использование компьютерной программы "Спеч Виевер" в процессе логопедического воздействия (дисс. ... канд. пед. наук). Москва.
7. Flexer, C. (2004). Rethinking auditory rehabilitation: Auditory training and technology. *Volta Review*, 104(4), 271–280.
8. Boothroyd, A., & Nittrover, S. (1988). Mathematical treatment of context effects in phoneme and word recognition. *The Journal of the Acoustical Society of America*, 84(1), 101–114.
9. Sharma, A., Dorman, M. F., & Spahr, A. J. (2002). A sensitive period for the development of the central auditory system in children with hearing impairments. *Ear and Hearing*, 23(6), 532–539.
10. Pisoni, D. B., & Cleary, M. (2003). Measures of working memory span and verbal rehearsal speed in children with hearing loss. *Ear and Hearing*, 24(1), 106–120.
11. Akhtar, N., Syakir Ishak, M. I., Bhawani, S. A., & Umar, K. (2021). Various natural and anthropogenic factors responsible for water quality degradation: A review. *Water*, 13(19), 2660–2670.
12. Kamolova, Y. M. (2026). Digital pedagogical tools as a factor of social and educational inclusion of children with hearing impairments in primary school. *Science and Education*, 7(1), 974–990. <https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovye-pedagogicheskie-sredstva-kak-faktor-sotsialnoy-i-obrazovatelnoy-inklyuzii-detey-s-naruseniyami-sluha-v-nachalnoy-shkole>
13. Kamolova Yu. M. Pedagogiko-didakticheskaya model proektirovaniya sifrovoy obrazovatelnoy sredy dlya razvitiya rechi u detey s narusheniem sluxa, obuchayushixsya na uzbekskom yazyke //Science and Education. – 2026. – T. 7. – №. 1. – S. 1056-1065. <https://cyberleninka.ru/article/n/pedagogiko-didakticheskaya-model-proektirovaniya-tsifrovoy-obrazovatelnoy-sredy-dlya-razvitiya-rechi-u-detey-s-naruseniyami-sluha>
14. Nematov S., Kamolova Y. A computer program based on spectral analysis for speech correction in children //Journal of physics: conference series. – IOP Publishing, 2021. – T. 2131. – №. 3. – S. 032108. <https://iopscience.iop.org/article/10.1088/1742-6596/2131/3/032108/meta>
15. Kamolova Y.M, Nematov SH.Q. PATENT FM №02378 Nutq nuqsonlarini korreksiyalash uchun qurilma – Adliya Vazirligi 04/01/2024

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.